XALQ DEPUTATLARI QO’SHRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-iyul VII-13-54-7-97-K/25 Qo’shrabot tumani

Qo‘shrabot tumandagi Tegirmonovul hamda Buloq mahalla fuqarolar yig‘inlari birlashtirilganligi va unga yangi nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303 sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-sonli “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga asosan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni atroflicha o‘rganib, tegishli mas’ullarning bildirgan fikrlarini tinglab, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi, komissiya raisi o‘rinbosari X.Parimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi Tegirmonovul hamda Buloq mahalla fuqarolar yig‘inlari birlashtirilganligi va nomi yangidan o‘zgartirilishi yuzasidan berilgan takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish va yangidan nomlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga javob bermaydigan mahalla fuqarolar yig‘inlari yangidan nom berish bo‘yicha takliflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi bosh mutaxassisi (X.Parimov) Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga ushbu yig‘ilish bayoni ilovaga muvofiq tasdiqlangan, tumandagi mavjud mahallalar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga muvofiq joy nomlarini qonun talablaridan kelib chiqib, qayta nomlash bo‘yicha takliflar va boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda viloyat komissiyasiga taqdim etsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (T.Jaxonov), “Istiqbol sari” gazetasi bosh muharriri (X.Mamarasulov) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Qaxxarov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SHAKARBOYEV
DILSHOD
DAVRONOVICH

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 16-iyuldagi
VII-13-54-7-97-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shrabot tumandagi Tegirmonovul hamda Buloq mahalla fuqarolar yig‘inlari birlashtirilganligi va unga yangi nom berish to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	Mahalla	Tegirmonovul, Buloq	Tegirmonovul, Buloq	Gujumsoy	